


○ Kunlardan bir kun Besh ko'chada orqa-oldiga qaramay yugurib borarkan:

— Hoy, kim bor, yordam beringlar! — deb qichqiribdi.


— Senga nima bo'ldi? Tinchlikmi?

— Orqamdan Oluv belgisi quvib kelayotganini nahotki ko'rmayapsizlar? Agar u menga yetib olsa, shunday musibat yuz beradiki!..




— Voy, shu ham musibat bo‘ldimi?

Ammo musibat baribir yuz beribdi! Oluv belgisi bechora Beshning orqasidan kelibdi-da, yoqasidan bo‘g‘ib, o‘tkir shamshiri bilan qiymalay ketibdi. Uning shamshirini hamma odatdagi minus deb o‘ylarkan. Bechora Beshning



titi-piti chiqib ketibdi, agar baxtiga yonginasidan uzundan-uzun chet el mashinasi o'tib qolmaganida, undan bir raqami ham qolmas ekan.

Olub belgisi, mashinani sal kaltaroq qilish mumkinmi-yo'qmi deb, atrofga bir zum alanglab qarabdi. Besh



ziyraklik qilib, birinchi uchragan 4 ga lip etib kiribdi-yu, yashirinib olibdi.

Biroq u endi Besh emas, to'rt bo'lib qolgan ekan, buning ustiga burni pachoq bo'libdi.




To'rt tinika-madori qurib qimirlashga holi kelmay, miq etmay o'tirgan ekan, birdan xuddi mehr-shafqatning o'zi gapirayotganday yoqimli, mayin, dardli bir ovozni eshitib qolibdi.

— Bechora! Seni kim bunchalik savaladi? Nima, og'aynilaring bilan urishib qoldingmi?



O, bechora To‘rt, uning qarshisida Bo‘lish belgisi shaxsan o‘zi turar edi.

— Salom, yaxshimisiz, — deb chiyillabdi To‘rt va sekin yakkakift bo‘lib eshik tomon yuribdi.



Biroq Bo'lish belgisi undan ham epchil ekan. U o'zining dahshatli qaychisini olibdi-da, bechorani shartta ikkiga bo'lib tashlabdi. To'rt g'oyib bo'lib, uning o'rnida ikkita ikki qolibdi. Bo'lish belgisi Ikkining bittasini cho'ntagiga solib olibdi, ikkinchisi payt poylab shartta qochib qolibdi.



U ko'chadan chopib o'tibdi-da, yurib borayotgan tramvayga chiqib olibdi.

— Bir vaqtlar Besh edim, — debdi u yig'lab-siqtab,  
— mana endi shu ko'ygga tushib qoldim!